

XUSNUDDINOVA ZULAYXO
XAMIDULLAYEVNA

**KO'ZI OJIZ BOLALAR BILAN
OLIB BORILADIGAN
KORREKSION-PEDAGOGIK
ISH MAZMUNI**



USLUBIY QO'LLANMA

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

XUSNUDDINOVA ZULAYXO XAMIDULLAYEVNA

**KO'ZI OJIZ BOLALAR BILAN
OLIB BORILADIGAN
KORREKSION-PEDAGOGIK
ISH MAZMUNI**

USLUBIY QO'LLANMA

Toshkent
«Osiyo tur»
2024

UO'K 004.71
KBK 32.973.202
X-17

Xusnuddinova Z.X. Ko'zi ojiz bolalar bilan olib boriladigan korreksion-pedagogik ish mazmuni. USLUBIY QO'LLANMA. – T.: "Osiyo tur", 2024. 78 b.

Mas'ul muharrir:

F.U.Qodirova – CHDPU, Pedagogika fakulteti, Maxsus pedagogika kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.

Taqrizchilar:

G.S.Abdullayeva - CHDPU, Pedagogika fakulteti, Maxsus pedagogika kafedrasi professor v.b., pedagogika fanlari doktori (DSc).

L.R.Xayitov – QDPI, Maktabgacha ta'lim nazaryasi kafedra mudiri, p.f.b.f.d (PhD) dotsent.

ISBN 978-9910-9397-4-7

Mundarija

KIRISH	4
1-MAVZU. Ko'zi ojiz bolalar rivojlanishining pedagogik-psixologik xususiyatlari	5
2-MAVZU. Ko'zi ojiz bolalar ta'limining tashkili-pedagogik, huquqiy asoslari	17
3-MAVZU. Ko'zi ojiz bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarida olib boriladigan korreksion ishlar yo'nalishlari va ularning mazmuni	27
4-MAVZU. Korreksion-pedagogik ishni tashkil etish bosqichlari	45
5-MAVZU. Korreksion-pedagogik ishlar jarayonida individual yondashuvdan foydalanishning kompleks imkoniyatlari	51
6-MAVZU. Korreksion-pedagogik ishni tashkil etishda foydalaniladigan metodlar va didaktik o'yinlar	65
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI	69

KIRISH

Jahon miqyosida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni ijtimoiy himoyalashga, jamiyatda o'z o'rnini topishiga ko'maklashish mexanizmlari amaliyotga tatbiq etilmoqda. Shu jumladan ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiyasi, salomatligi, ijtimoiylashuvini ta'minlash, ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarining moddiy va texnik bazasini boyitish hamda yangilash yuzasidan olib borilayotgan ishlar davlat siyosati darajasiga ko'tarilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni [3], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori[6], O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi 638-son "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori [16], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-apreldagi PQ-209-son "Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda ta'lim berish sifatini oshirish hamda ular faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori[16] asosida ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarning huquqlarini har tomonlama himoyalash va ularning bilimni rivojlantiruvchi asosiy omil hisoblanadigan ta'lim olish huquqini sifatli ta'minlash eng muhim majburiyatga aylanishi belgilab berilgan. Shu borada ijtimoiy himoyaga muhtoj o'quvchilar uchun sifatli ta'lim berish bo'yicha amaliy ishlar tizimli ravishda yo'lga qo'yilgan.

1-MAVZU.KO'ZI OJIZ BOLALARNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Bugungi kunda uzluksiz ta'limning har bir bo'g'inida ta'lim oluvchilarning akademik faoliyati hamda ijtimoiy rivojlanishini barqaror ta'minlashga e'tibor kuchaytirilgan. Ta'lim oluvchilar orasida ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar borki, ular ham sifatli ta'lim olishga, ijtimoiy munosabatlarda faol ishtirok etishga haqlidirlar. Buning uchun ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarga ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida umumta'lim fanlarini o'qitish hamda korreksion mashg'ulotlarini tashkil etish jarayononi ijtimoiy buyurtmalar asosida hamda zamonaviy yondashuvlarga tayangan holda tashkil etilishi lozim.

Ko'rish qobiliyati deb - ko'rish analizatori orqali atrofdagi voqealikni his qilish va idrok etishga aytiladi. Miya tashqi dunyo haqidagi eng ko'p taassurotlarni ko'rish analizatori orqali oladi, ya'ni haqiqiy obyektlar va hodisalar haqidagi tasavvurlarni shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ko'rish analizatori yordamida turli xil predmetlarning (yorug'lik, rang, kattalik) muhim xususiyatlari o'rganiladi, fazoda mo'ljal olinadi, tasviriylar va me'moriy san'at idrok etiladi va tabiatdagi murakkab o'zgarishlar kuzatiladi.

Ko'rish nafaqat ko'ruv idrokni, balki fazoviy tasavvurlarni (fazoda mo'ljal olish, harakat sohasi) rivojlantirishda ham katta rol o'ynaydi, chunki harakatlar vizual nazorat ostida rivojlanadi. Ko'ruv-fazoviy tasvirlar bola uchun maktabda o'qish jarayonida ayniqsa muhimdir, chunki alifbo harflari, raqamli tasvirlar, geografik xaritada yo'nalish va boshqalarni o'zlashtirish ko'ruv-fazoviy tasvirlarning ma'lum darajada rivojlanishini nazarda tutadi. Ko'ruv idrok ko'ruv analizatori tomonidan amalga oshiriladi, bu vizual stimullarni idrok etish va tahlil qilishni amalga oshiradigan murakkab nervoretseptor tizimini anglatadi. Ko'ruv idrokning o'ziga xos xususiyatlari - atrofdagi dunyoni ko'rishning uzoqligi, aniqligi, bir vaqtning

o'zida va yaxlitligidadir.

Ko'ruv analizator bir qator xususiyatlar bilan ajralib turadigan eng murakkab va eng mukammal organ. U terituyish, teginish, hidlash, eshitish analizatorlari bilan yaqin aloqada bo'lib, ular bilan murakkab dinamik aloqa tizimlarini hosil qiladi. Shu sababli, vizual funksiya boshqa funksiyalarning faoliyatiga ta'sir qiladi, ular bilan murakkab, sintetik tasvirlarni kompleks ravishda shakllantiradi, real dunyo obyektlari va hodisalarini aks ettiradi.

Ko'rish analizatori

Ko'rish
analizatorining
tuzilishi




Ko'ruv analizator periferik (ko'z), o'tkazuvchi (ko'ruv nervi, subkortikal nervi hujayralari) va markaziy qismdan (ensa qismida joylashgan miya yarim sharlarining ko'ruv zonolari) iborat. Ko'ruv analizatorning periferik qismi uchta qobiqdan iborat: tashqi, o'rta va ichki. Tashqi qobiq ko'z olmasini aylantiruvchi mushaklarni va oldingi shaffof qismini – shox pardani o'z ichiga oladi. O'rta qobiqda qon tomirlari, rangdor parda va qorachig'dan iborat. Ichki qobiq (sechatka) ko'zning sezuvchi (retseptorlari) apparati hisoblanadi va u ko'ruv hujayralari bo'lmish tayoqcha hamda kolbachasimon hujayralardan tashkil topgan. Ko'z olmasining ichki qismini shishasimon tana (rangsiz jelatinli massa) va periferik qismni markaziy qism bilan bog'laydigan optik nervni tashkil qiladi[20].

Shox parda, linza va shishasimon tana ko'zning murakkab

tarkibiy qismi bo'lib, yorug'likning optik sinishi tizimidir. Ushbu tizimning me'yorda ishlashi to'g'ri sinishni (ko'zning yorug'lik sinishi qobiliyatini) ta'minlaydi hamda obyektдан keladigan nurlar sechatkada sinadi. Bunday holda, predmet to'liq va aniq idrok qilinadi. Natijada bolaning aqliy rivojlanishi ta'minlanadi.

Ko'rish analizatorining buzilishi atrofdagi voqelikni bilishda sezilarli qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi, ijtimoiy aloqalarni toraytiradi, bolaning mo'ljal olishini, ko'plab faoliyat turlari bilan shug'ullanish imkoniyatlarini cheklaydi.



Shuningdek, ko'rishning sezilarli darajada pasayishiga olib keladigan ko'zda nurning sinish qobiliyatining buzilish turlari, **miopiya** (uzoqdan yaxshi ko'ra olmaslik) va **gipermetropiyan** (yaqindan predmetlarni ko'ra olmaslik, uzoqdan ko'rish) o'z ichiga oladi. Miopiyada ko'zning sinishi buzilishi obyektдан keladigan nurlar sechatkada emas, balki uning oldida sinishida namoyon bo'ladi. Gipermetropiyada obyektдан keladigan nurlarning sinishi sechatkaning orqasida sodir bo'ladi. Ushbu og'ishlar tufayli sechatkada noaniq tasvirlar hosil bo'ladi. Bolalarda gipermetropiya miopiyaga qaraganda kamroq uchraydi va kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda